

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ASARIDA VAQTGA DOIR  
ARABIY O‘ZLASHMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Isxakova Nigora Ibrohimovna**  
magistrant, Yangi Asr Universiteti,  
“Sharq mumtoz filologiyasi” kafedrasini,  
Ilmiy rahbar: **S.A. Rustamiy**  
filologiya fanlari doktori, professor

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 18.06.2026  
Revised: 19.06.2026  
Accepted: 20.06.2026

**KALIT SO‘ZLAR:**

arabiy o‘zlashmalar,  
leksik-semantik tahlil,  
vaqt leksikasi, “O‘tgan  
kunlar”, kalendarik  
atamalar, diniy-liturgik  
vaqt, semantik guruh.

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida vaqtga doir arabiy o‘zlashmalar birinchi marta maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida ajratilib tahlil qilingan. Asarda uchraydigan 12 ta arabiy birlik - HIJRIY (هَجْرِيّ), DALV (دَلْو), JAVZO (جَوَزَاء), HAMAL (حَمَل), ZAMON (زَمَان), VAQT (وَقْت), SUNBULA (سُنْبُلَة), DAQIQA (دَقِيقَة), SUBH (صَبْح), SOAT (سَاعَة), ASR (عَصْر), JUMA (جُمُعَة) - to‘rt semantik guruhga ajratilib, ularning o‘zbek tiliga o‘zlashish yo‘llari, fonetik-morfologik moslashuvi va asardagi badiiy-funksional vazifalari aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, mazkur arabizmlar ilk bor tizimli leksik-semantik tahlilga tortildi va ular o‘zbek badiiy matnida kalendarik, astronomik hamda diniy vaqt tizimlarini birlashtiruvchi maxsus leksik qatlam sifatida belgilandi.

**KIRISH**

Til bu xalqning xotirasi. Har bir so‘z o‘zida asrlarning nafasini, avlodlarning dunyoqarashini mujassam etadi. O‘zbek tilida arabiy o‘zlashmalar alohida bir dunyo ular shu tilda so‘zlashgan odamlarning qanday vaqtni his qilganini, tongni qanday kutganini, hafta kunlarini qanday sanab o‘tganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, vaqtga doir arabiy leksika nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham bebaho manbadir.

Arab tili o‘zbek tili bilan VIII–IX asrlardan beri aloqa qilib keladi. Islom dinining Markaziy Osiyoga yoyilishi nafaqat yangi e’tiqod, balki yangi til qatlamini ham olib keldi. Din bilan birga kelgan arabizmlar orasida vaqtni ifodalovchi so‘zlar alohida o‘rin tutadi: namoz vaqtlari, oylar, yil hisoblari, kechayu kunduzning bo‘limlari - bularning hammasi arabcha nomlar bilan til ongiga singib ketdi. Professor N. Mahmudov ta’kidlaganidek: “Arab tili o‘zbek tili leksikasining boyishida eng muhim manbalardan biri bo‘lib kelgan”. [8]

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani bu jarayonning eng yorqin badiiy aksidir. 1926-yilda nashr etilgan bu asar nafaqat o‘zbek adabiyotining durdona namunasi, balki o‘sha davr tilining jonli ensiklopediyasi hamdir. [1] Asarda vaqtni ifodalovchi arabiy so‘zlar juda nozik va o‘rinli qo‘llanilgan: ular personajlarning kundalik hayotiga, diniy turmush tarziga va tarixiy muhitga qo‘shilgan. Aynan shu sababli asardagi vaqt leksikasi tilshunoslar uchun qimmatli tadqiqot maydoni sanaladi. O‘zbek tilshunosligida arabizmlarni o‘rganish bo‘yicha bir qator muhim ishlar amalga oshirilgan. E. Begmatov [4] (1983) arabiy o‘zlashmalarning umumiy tavsifini, N. Ismatullayev [5] (1992) ularning semantik xususiyatlarini, A. Madvaliyev [7] (2019) leksikografik jihatlarini o‘rganib chiqdi. Biroq bu tadqiqotlarning hech biri “O‘tgan kunlar” asaridagi vaqtga doir arabizmlarni alohida va tizimli ravishda tahlil qilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida yozildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: “O‘tgan kunlar” asarida uchraydigan vaqtga doir 12 ta arabiy birlik ilk bor maxsus tadqiqot ob‘ekti sifatida ajratilib, ularning leksik-semantik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Mazkur arabizmlar birinchi marta to‘rt semantik guruhga bo‘linib, asarda kalendarik, astronomik va diniy vaqt tizimlarini birlashtiruvchi maxsus leksik qatlam sifatida belgilandi.

#### **MATERIAL VA METODLAR**

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani (Toshkent: Sharq, 2019) tanlandi. Roman matnini bir necha bor diqqat bilan o‘qish jarayonida vaqt tushunchasi bilan bog‘liq arabiy kelib chiqishli so‘zlar maxsus belgilab borildi. Lug‘aviy manbalar sifatida O‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘ati (2006–2008) va Sh. Rahmatullayevning etimologik lug‘ati (2000) dan foydalanildi. [8] Arabiy kelib chiqishini aniqlashda etimologik mezon hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Turkiy yoki forsiy kelib chiqishga ega bo‘lgan, lekin tashqi ko‘rinishi arabcha tuyulgan so‘zlar - masalan, “xursand”, “domla” kabi so‘zlar - tadqiqot doirasidan chiqarib yuborildi. Faqat haqiqiy arab tilidan o‘zlashgan, vaqt ma’nosiga ega birliklar tanlab olindi.

Tadqiqotda beshta ilmiy metod qo‘llanildi:

1. Leksik-semantik tahlil - har bir so‘zning asardagi ma’no tuzilishi va kontekstdagi qo‘llanishi o‘rganildi.
2. Etimologik tahlil - so‘zlarning arab tilidagi dastlabki shakli va ma’nosi bilan o‘zbek tilidagi ko‘rinishi qiyoslandi.
3. Komponent tahlil - so‘zlarning semantik tarkibiy qismlari va ma’no ko‘lamlari belgilandi.

4. Tasniflash metodi - arabizmlar semantik guruhlar bo'yicha tartibga solinib, jadval tuzildi.

5. Tavsifiy metod - har bir so'zning o'zbek tiliga kirish yo'llari, fonetik va morfologik o'zgarishlari va asardagi funksional vazifalari batafsil tavsiflandy.

### NATIJARLAR

*1. Tadqiqot tomonidan aniqlangan arabiy o'zlashmalar va ularning leksik-semantik ko'rsatkichlari*

Asarni chuqur o'rganish natijasida vaqtga doir 12 ta arabiy o'zlashma aniqlanib, ularning leksik-semantik xususiyatlari jadval shaklida tizimlantirildi. Bu so'zlar o'zbek tilida uchraydigan arabizmlarning boy qatlamiga tegishli bo'lib, birinchi marta ana shunday tizimli tavsifga ega bo'ldi:

#	O'zbek shakli (arabcha)	Arab asiyati	So'z turi	O'zbekcha ma'nosi	Semantik guruh
1	HIJRI Y (هَجْرِي)	هجر	Nisbiy sifat	Hijratga oid; musulmon yil hisobi	Kalendarik atama
2	DALV (دَلْو)	دلو	Ot	Chelak; Dalv burji (22 yanvar – 20 fevral)	Astronomik-kalendarik
3	JAVZ O (جَوَزَاء)	جوزاء	Ot	Javzo burji; Egizaklar (22 may – 21 iyun)	Astronomik-kalendarik
4	HAMA L (حَمَل)	حمل	Ot	Qo'y; Hamal burji (22 mart – 20 aprel)	Astronomik-kalendarik
5	SUNB ULA (سُنْبُلَاء)	سنبله	Ot	Boshoq; Sunbula burji (22 avgust – 21 sentyabr)	Astronomik-kalendarik
6	ZAMO N (زَمَان)	زمان	Ot	Davr, tarixiy muddat, vaqt oralig'i	Umumiy vaqt tushunchasi

7	VAQT (وَقْتُت)	وقت	Ot	Payt, belgilangan muddat, fursat	Umumiy vaqt tushunchasi
8	DAQI QA (دَقِيْقَة)	دقيقة	Ot	Vaqt birligi; minut	Vaqt o'lchov birligi
9	SUBH (صُبْح)	صبح	Ot	Tong; ertalabki yorug'lik; tonggi namoz	Diniy-liturgik vaqt
10	SOAT (سَاعَة)	ساعة	Ot	Vaqt birligi (60 daqiqa); soat vositasi	Vaqt o'lchov birligi
11	ASR (عَصْر)	عصر	Ot	Kechki namoz; yuz yillik davr; kunning ikkinchi yarmi	Diniy-liturgik vaqt / Davr
12	JUMA (جُمُعَة)	جمعة	Ot	Hafta kuni; jamo'a namozi kuni; muqaddas kun	Diniy-liturgik vaqt

*1-jadval. "O'tgan kunlar" asarida ilk bor aniqlangan vaqtga doir arabiy o'zlashmalar*

Ushbu 12 ta so'z o'zbek tilshunosligida birinchi marta "O'tgan kunlar" asari doirasida maxsus guruhlantirildi. Avvalgi tadqiqotlarda ularning ba'zilar alohida-alohida tilga olingan bo'lsa-da, ularni yagona vaqt leksikasi sifatida tizimlash va semantik tahlil qilish amalga oshirilmagan edi. Bu esa bizning tadqiqotimizning asosiy ilmiy yangiligini tashkil etadi.

*2. To'rt semantik guruhning tavsifi va badiiy-funksional xususiyatlari*

- *Birinchi guruh -kalendarik va astronomik atamalar.* Bu guruhga HIJRIY (هَجْرِي), DALV (دَلْو), JAVZO (جَوَزَاء), HAMAL (حَمَل), SUNBULA (سُنْبُلَة) kiradi. Bu besh so'z islom kalendaristikasi va arab astronomiyasiga oid bo'lib, ularning hammasi dastlab arab astrologiya tizimidan olingan. HIJRIY so'zi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning Makkadan Madinaga ko'chishi - hijrat voqeasiga nisbat beriluvchi sifatdir. Bu so'z orqali musulmon yil hisobi anglatiladi va asarda tarixiy sanalar bilan bog'liq o'rinlarda qo'llaniladi. DALV, JAVZO, HAMAL, SUNBULA esa zodiakchilik tizimining burjlari bo'lib, o'sha davrda dehqonchilik, savdo va kundalik taqvim ularning nomlariga bog'liq ravishda qurilgan. Asarda bu so'zlar tarixiy muhitni yaratish va o'sha davr odamlarining vaqt hisoblash uslubini

ifodalash uchun ishlatilgan. Bu guruh soʻzlarining ilmiy yangiligi shundaki, ular ilk bor bir guruhdagi kalendarik sistema sifatida aniqlandi va asarda oʻzaro bogʻliq kontekstlarda qoʻllanilishi koʻrsatildi.

- *Ikkinchi guruh - umumiy vaqt tushunchasi.* Bu guruhga ZAMON (زَمَان) va VAQT (وَقْت) kiradi. Ular bir-biriga yaqin maʼnoda koʻrinsa-da, asarda aniq semantik farqlanish mavjud. Zamon “tarixiy davr, ijtimoiy muhit” maʼnosida qoʻllaniladi: “u zamonda”, “bu zamonning odamlari” kabi birikmalarda. Vaqt esa “muayyan, oʻlchanganadigan payt” maʼnosini anglatadi: “vaqti keldi”, “qancha vaqt oʻtdi” kabi iboralarda. Bu ikki soʻzning semantik farqi Qodiriy qoʻlidagi baxtsiz muhabbat va oʻtkinchilik falsafasini tushunish uchun muhimdir. Asarning oʻzi “oʻtgan kunlar” yaʼni oʻtib ketgan zamonning qaytmas vaqtlari haqida. Muallif bu ikki soʻz orqali nafaqat vaqt oʻlchab, balki umr falsafasini ifodalaydi.

*Uchinchi guruh —vaqt oʻlchov birliklari.* DAQIQA (دَقِيقَة) va SOAT (سَاعَة) bu guruhni tashkil etadi. Bu ikkisining oʻzlashish tarixi nihoyatda qiziq. Arab tilida “daqiqqa” aslida “nozik, yupqa narsa” maʼnosini bildirgan - vaqtning nozik boʻlagini anglatuvchi metafora sifatida paydo boʻlgan. SOAT esa arabcha "sāʼatun (سَاعَةٌ)" — dastlab “vaqt, lahza” degan oddiy soʻz boʻlgan, keyinchalik 60 daqiqalik aniq oʻlchov sifatida barqarorlashgan. Asarda bu soʻzlar personajlar hayotidagi aniq lahzalarni ifodalashda qoʻllaniladi: “biroz soatdan keyin”, “birpas daqiqa oʻtgach” kabi iboralarda. Ular vaqtning oʻlchanganligini, hayotning hisob-kitob bilan oʻtayotganini his ettiradi.

*Toʻrtinchi guruh - diniy-liturgik vaqt tizimi.* Bu guruh uchta soʻzdan: SUBH (صُبْح), ASR (عَصْر), JUMA (جُمُعَة) dan iborat. Ularning har biri islom ibodat taqvimining muayyan nuqtasini belgilaydi. SUBH - kun boshlanishining belgisi. Bu soʻz nafaqat “tong” degan vaqt birligini, balki yangi boshlanish, umid, ruhiy uygʻonish ramzini ham oʻzida mujassam etgan. Asarda SUBH koʻpincha personajlarning yangi kuni boshlanishida, umidvor kayfiyatda qoʻllaniladi. ASR - bu soʻz oʻzbek tilidagi eng boy polisemik arabizmlardan biridir. U bir vaqtning oʻzida: (1) peshindan keyingi namoz vaqtini, (2) yuz yillik tarixiy davrni, (3) kunning ikkinchi yarmini anglatadi. Qodiriy “oʻtgan kunlar” mavzusida aynan ASR soʻzining “davri” maʼnosidan mohirona foydalanadi. JUMA- faqat hafta kuni emas, balki diniy-ijtimoiy hayotning markaziy nuqtasi. “Oʻtgan kunlar” asarida juma kuni bilan bogʻliq sahnalar odatda ijtimoiy toʻplanish, xabar almashuv va muhim voqealar bilan bogʻliq boʻlib keladi.

Tadqiq etilgan arabizmlarning oʻzbek tiliga oʻzlashish yoʻli bu aslida tillarning asrlar davomida olib borgan muloqotidir. Arab tiliga xos boʻlgan boqqa undoshlari (ع, ح, خ) va uzun unlilar oʻzbek tilining fonetik tizimiga moslashtirildi. Masalan, عَصْر (aʼsr) soʻzida halq undoshi (ع) tushirib qoldirildi va “asr” shaklini oldi. صُبْح (subḥ) soʻzidagi ḥ undoshi “h” bilan almashtirildi. Morfologik jihatdan esa barcha 12 ta soʻz oʻzbek tilining grammatik tizimiga toʻla singib ketdi. Ular kelishik qoʻshimchalarini erkin qabul qiladi (zamonda, vaqtga, soatdan), egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanadi (asr-i, juma-si), koʻplik shaklini oladi (soatlar, daqiqa-lar, jumalar). Bu faktning oʻzi ularning oʻzbek tilidagi “mehmon” emas, “uydagi” soʻzlar ekanligini koʻrsatadi.

O‘zlashish jarayoni bu faqat so‘zning bir tildan ikkinchisiga o‘tishi emas, bu so‘zning yangi muhitda “yashash” tarzini o‘rganishi. Tadqiq etilgan arabizmlardan ba‘zilari yangi tilga kirib, dastlabki ma‘nosini saqlab qoldi, ba‘zilari esa sezilarli darajada o‘zgardi. ASR (عَصْر) - semantik kengayishning eng yaqqol namunasi. Arabchada bu so‘z dastlab “siqmoq, kuchini chiqarmoq” fe‘lidan hosil bo‘lgan va “peshindan keyingi vaqt” ma‘nosiga ega bo‘lgan. O‘zbek tilida esa u “yuz yillik tarixiy davr” ma‘nosini ham kasb etdi. Bu o‘zgarish bevosita O‘rta Osiyo mintaqasida arabiy ta‘limning rivojlanishi bilan bog‘liq. DAQIQA (دَقِيقَة) arabchada “noziklik, inchalik” sifatidan kelib chiqqan. Vaqtga nisbatan qo‘llanganda “mayda”, “Engil” bo‘lak ma‘nosini anglatgan. O‘zbek tilida bu so‘z soddalashib, asosan “minut” ma‘nosida qo‘llanadi - ma‘no torayganligi kuzatiladi.

JUMA (جُمُعَة) arabchada “yig‘ilish, to‘planish” ma‘nosidagi fe‘ldan hosil bo‘lgan. O‘zbek tilida esa u shu ma‘noni saqlab qoldi, lekin kengayib, nafaqat “hafta kuni”, balki “diniy yig‘in”, “muqaddas kun” ma‘nolarini ham o‘z ichiga oldi.

### **MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqqan holda quyidagi muhim xulosalar chiqarish mumkin. Xulosa sifatida ayta olamizki, “O‘tgan kunlar” asaridagi vaqtga doir arabizmlar oddiy leksik birliklar emas. Ular Qodiriy yaratgan badiiy olamning “vaqt skeletini” tashkil etadi. Asarni o‘qigan kishi sezadi: u erda vaqt bir necha qatlamda yashaydi. Birinchi qatlam - kosmik vaqt (DALV, JAVZO, HAMAL, SUNBULA - yulduzlar vaqti). Ikkinchi qatlam - tarixiy vaqt (HIJRIY, ZAMON - sivilizatsiya vaqti). Uchinchi qatlam - diniy vaqt (SUBH, ASR, JUMA — ibodat vaqti). To‘rtinchi qatlam - kundalik, o‘lchanadigan vaqt (SOAT, DAQIQA, VAQT). Bu to‘rt qatlam birgalikda asarning o‘ziga xos vaqt falsafasini yaratadi.

Ikkinchi muhim kuzatuv - bu so‘zlarning asarda tasodifiy emas, balki o‘rinli va maqsadli qo‘llanilganligi. Qodiriy “diniy” vaqt so‘zlarini ko‘pincha personajlarning ruhiy holati bilan bir qatorda keltiradi. SUBH faqat “tong” emas - u umidning belgisi. ASR faqat “namoz vaqti” emas - u o‘tib borayotgan davrning metaforasi. Bu esa Qodiriyning so‘zlarga munosabatda tilshunos sezgiga ega yozuvchi ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotning natijalari ilgari mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlarni yanada boyitadi va ba‘zi hollarda aniqlashtiradi. N. Ismatullayev arabiy o‘zlashmalarining polisemiya imkoniyatlarini umumiy tarzda ko‘rsatib bergan bo‘lsa, bizning tadqiqotimiz aynan vaqt leksikasida bu imkoniyatlarning eng yuqori darajada namoyon bo‘lishini isbotladi. Haqiqatan ham, ASR so‘zidagi uch xil ma‘no - bu o‘zbek tilidagi polisemiyaning noyob namunasi. A. Madvaliyev (2019) arabizmlarning o‘zbek tiliga moslashuvda fonetik o‘zgarishlar hal qiluvchi rol o‘ynamagan deb hisoblagan.[5] Bizning tadqiqotimiz esa bu fikrni qisman rad etadi: fonetik moslashuv so‘zning o‘zbek tiliga qanchalik “singib ketishi”a to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatgan. Masalan, SOAT so‘zi fonetik jihatdan deyarli arab ko‘rinishida saqlanib qolgan va keng tarqalgan. SUBH esa fonetik jihatdan og‘ir bo‘lganligi uchun so‘zlashuv tilida “sub” yoki “subh” kabi variantlarda qo‘llaniladi. Xususan, bu tadqiqot o‘zbek badiiy adabiyotidagi arabizmlarni vaqt kategoriyasi prizmasidan o‘rganishning yangi metodologik yo‘lini ochib

beradi. Faqat “O‘tgan kunlar” emas, Navoiy, Muqimiy, Hamza asarlarida ham shunga o‘xshash tahlil o‘tkazilsa, o‘zbek adabiy tilida vaqt tushunchasining evolyutsiyasi to‘liq rasm tarzida ko‘rinishi mumkin. Tadqiq etilgan 12 arabizmdan 10 tasi bugungi kunda ham o‘zbek tilida faol holda yashaydi. Bu ulkan barqarorlik belgisidir. Faqat DALV va SUNBULA nisbatan arxaik tus olgan - zamonaviy odam bu so‘zlarni asosan badiiy yoki ilmiy matnlarda uchratadi. Bu esa arabizmlarning “tiriklik qobiliyati” til tizimidagi funksional zaruriyatga bog‘liqligini ko‘rsatadi: diniy va kundalik hayotda kerakli so‘zlar yashaydi, astronomik atamalar esa asta-sekin tor doiralarga cheklanadi.

### XULOSA

Ushbu tadqiqot “O‘tgan kunlar” asarini yangicha - vaqt leksikasi nuqtai nazaridan o‘qish tajribasini taqdim etdi. Qilingan kuzatuvlar va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqot ishi davomida “O‘tgan kunlar” asaridagi vaqtga doir 12 ta arabiy o‘zlashma — HIJRIY (هِجْرِي), DALV (دَلْو), JAVZO (جَوَزَاء), HAMAL (حَمَل), SUNBULA (سُنْبُلَاء), ZAMON (زَمَان), VAQT (وَقْت), DAQIQA (دَقِيقَة), SUBH (صُبْح), SOAT (سَاعَة), ASR (عَصْر), JUMA (جُمُعَة) — ilk bor tizimli leksik-semantik tahlilga tortildi va ular to‘rt semantik guruhga ajratildi. Guruhlar o‘zaro bog‘liq ravishda asarda “vaqtning to‘rt qatlamini” tashkil etadi: kosmik-astronomik vaqt, tarixiy vaqt, diniy-liturgik vaqt va o‘lchanadigan kundalik vaqt. Bu qatlamlar Qodiriyning badiiy olamida bir-birini to‘ldirib, asarning vaqt falsafasini yaratadi. Barcha 12 ta so‘z fonetik va morfologik jihatdan o‘zbek tili tizimiga to‘la singib ketgan. Grammatik qo‘shimchalarni erkin qabul qilish ularning o‘zbek tilida “uydagi” so‘zlarga aylanganligi belgisidir. Ba’zi so‘zlar o‘zbek tiliga kirib, dastlabki ma’nosini kengaytirdi (ASR), ba’zilari toraytirdi (DAQIQA), ba’zilari esa yangi ma’no qirralar kasb etdi (JUMA). Bu o‘zgarishlar tasodifiy emas — ular o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos talabi va dunyoqarashining til ustidagi ta’siri natijasida yuz bergan. Vaqtga doir arabizmlar asarda uch funksiyani bajaradi: (1) tarixiy-madaniy koloritni yaratish; (2) diniy va ma’naviy muhitni ifodalash; (3) Qodiriyning o‘tkinchilik falsafasini til orqali badiiy ifodalash. 12 arabizmdan 10 tasi zamonaviy o‘zbek adabiy tilida ham faol qo‘llanilmoqda. Faqat DALV va SUNBULA nisbatan arxaiklashtirib bormoqda. Bu faktning o‘zi arabizmlarning “tiriklik qobiliyati” funksional zaruriyatga bog‘liqligini isbotlaydi.

Ushbu tadqiqot boshqa o‘zbek adabiy asarlaridagi vaqt leksikasini qiyosiy o‘rganish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelajakda Navoiy, Muqimiy, Hamza va zamonaviy adabiyot namunalari asosida shunga o‘xshash tadqiqotlar olib borilsa, o‘zbek adabiy tilida vaqt tushunchasining to‘liq tarixiy manzarasi yaratilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar: roman. - Toshkent: Sharq, 2019. - 384 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. - Toshkent: Universitet, 2000. - 600 b.
4. Begmatov E. O‘zbek tilida arabiy o‘zlashmalar. - Toshkent: O‘qituvchi, 1983. - 198 b.
5. Ismatullayev N. Arabiy o‘zlashmalar semantikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 78 b.
6. Ismatullayev N. Polisemiya hodisasi o‘zbek tilida. - Toshkent: Universitet, 1995. - 89 b.
7. Madvaliyev A. O‘zbek tilida arabizmlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. - 180 b.
8. Mahmudov N. O‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. - Toshkent: Fan, 2017. - 220 b.
9. Nurmonov A. Vaqt kategoriyasi va til. - Toshkent: Fan, 1988. - 67 b.
10. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 340 b.
11. Bafoyev B. O‘zbek tilida arabizmlarning fonetik moslashuvi. - Toshkent: Fan, 2020. - 120 b.
12. Abdullayev Y. Arabizmlarning stilistik xususiyatlari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 180 b.